

Geografiya. Biologiya. Zoologiya. Ekologiya

JANUBIY IQTISODIY RAYON QISHLOQ TUMANLARI NOMLARINING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

X.M.Bayqabilov – *geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori*

K.F.Sharipov – *mustaqil izlanuvchi*

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Tayanch so'zlar: iqtisodiy rayon, toponimik siyosat, nomlarning geografik xususiyatlari, leksik-stratigrafik qatlamlar.

Ключевые слова: экономический район, топонимическая политика, географические особенности названий, лексико-стратиграфические слои.

Key words: economic region, toponymic politics, geographical features of names, lexical-stratigraphic layers.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida o'z maqsadlari sari dadil qadam tashlayotgan yurtimiz – O'zbekistonda har jabhada bo'lgani singari ma'naviyatni yuksaltirish, milliy o'zlikni anglash va milliy madaniyatni yuksaltirishga ham alohida e'tibor berilmoqda. Mustaqillik yillarida geografik joy nomlariga milliy qadriyatlar ustunlaridan biri sifatida qaralib, yangicha toponimik siyosat yuritila boshlandi [1]. Buning yaqqol namunasini O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrda qabul qilingan "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuni va unga muvofiq holda 2012-yil 16-oktabrda tasdiqlangan geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 295-sonli qarori misolida ko'rib turibmiz [2]. Mamlakatimizning Janubiy iqtisodiy rayoni (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari) ma'muriy qishloq tumanlari ham tabiatining o'ziga xosligi, tarixi, aholisining etnik va ijtimoiy xususiyatlari, shu bilan birgalikda toponimlarining farqli jihatlari bilan ajralib turadi.

Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlaridagi toponimlarni tabiiy geografik jihatdan tadqiq etish, geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash yuzasidan aniq takliflar ishlab chiqish va toponimik xaritalashtirish, geografik nomlardan foydalanishni yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotda Janubiy iqtisodiy rayoni (Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari) ma'muriy qishloq tumanlari nomlarining geografik xususiyatlari, lug'aviy va tarixiy qatlamlari toponimik tadqiq etilgan, bunda toponimikaning umumiy va mintaqaviy masalalari bilan shug'ullangan hamda O'zbekiston toponimiyasini geografik jihatdan yoritilishida munosib hissa qo'shgan H.Hasanov, S.Qorayev, P.G'ulomov, Q.Seytniyazov, M.Mirakmalov, Q.Hakimov, T.Nafasov, A.Mamatov, Y.Ahmadaliyev va boshqa olimlarning ilmiy qarashlari asos qilib olindi [5].

O'zbekiston toponimiyasini geografik jihatdan yoritilishida H.Hasanov, S.Qorayev, P.G'ulomov, Q.Seytniyazov, M.Mirakmalov, Q.Hakimov, T.Nafasov, A.Mamatov, Y.Ahmadaliyevlarning ishlarini alohida qayd etish mumkin. XX asrning 50-60-yillaridan boshlab toponimika sohasida olimlar ilmiy maktabi shakllandi va faol ish olib borildi [6].

Mazkur tadqiqot ishini bajarishda mavzuga oid nashr qilingan adabiyotlar va kartografik materiallar, statistik ma'lumotlardan tashqari qo'shimcha toponimik adabiyotlardan olingan ma'lumotlar hamda sohaga doir internet saytlari ma'lumotlaridan foydalanildi.

Tadqiqot ishimizda ham Janubiy iqtisodiy rayondagi ma'muriy qishloq tumanlarining nomi, qavsi tilda nomlanganligi, qanday ma'no kasb etishi etimo-semantik tahlil qilingan va toponimik tasnifiv guruhlashtirilgan.

Janubiy iqtisodiy rayondagi ma'muriy qishloq tumanlari nomlarining stratigrafik qatlami haqida mulohaza yuritishdan oldin stratigrafiya bo'yicha ma'lumot olish zarur deb hisoblaymiz. "Stratigrafiya" tushunchasi lotincha "stratum" - qatlam, "grafo" - yozaman degan so'zlardan tarkib topgan bo'lib, qatlamlar ketma-ketligi mazmunini

anglatadi. Stratigrafik qatlamni o'rganish bir qancha fanlarda qo'llaniladi (1-jadval). Shuningdek, toponimika fanini o'rganish asosida stratigrafik tahlil uslubidan foydalanish imkoniyatlari mavjud, chunki toponimik atamalarining paydo bo'lish xususiyatlari ham go'yoki tog' jinslari kabi ma'lum davrlararo qatlamlar hosil qilgan holda shakllanadi. O'sha qatlamlarning davrlararo yotish xususiyatini o'rganish orqali tahlil qilish, ularning tarkib topish, shakllanish xususiyatlari, nomlanish qonuniyatlarini, ma'lum tabiiy-tarixiy va siyosiy-iqtisodiy sharoit bilan uzviy bog'liq holda o'rganish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Bu jarayonni amalga oshirishni bilvosita ilmiy adabiyotlar, yozma manbalarni o'rganish orqali olib borilsa ishonchliroq bo'ladi [7:39]. Biroq, qadimgi toponimlarning etimologik mazmunini ochib berish uchun hamma vaqt ham ilmiy adabiyotlardan foydalanish imkoniyati mavjud emas. Toponimlarni tasniflash ishlari B.Semyonov-Tyanshanskiy (1924), L.Gumetskaya (1932), B.Tashitskiy (1946), A.Salishev (1968), B.Juchkevich (1968), N.Podolskaya (1978), Z.Do'simov (1978), E.Murzayev (1979), A.Superanskaya (1985), H.H.Hasanov (1985), Yan Syaofa (1990), S.Qorayev (2006), Chu Yapin (2009), S.Basikn(2006), P.G'ulomov (2013), Shi Tzyalu (2019), M.Mirakmalaov (2020) va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Shu o'rinda 1992-yil 18-may kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosati Surxondaryo viloyati tarkibida Bandixon tumanini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qildi. 1992-yil 22-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosatining qarori bilan Surxondaryo viloyatining Gagarin tumani Muzrobd tumani, Lenin yo'li tumani Qiziriq tumani, shu tumanning markazi Lenin yo'li posyolka-shaharchasi Sariq posyolka shaharchasi, Qashqadaryo viloyatining Ulyanov tumani Kasbi tumani, Ulyanov tumani markazi Mug'lon aholi punkti deya qayta nomlandi [3:93].

Biz quyida Janubiy iqtisodiy rayonidagi qishloq ma'muriy tumanlari nomlarining leksik-stratigrafik qatlami nomlanishini lozim topdik.

1-jadval. Janubiy iqtisodiy rayon qishloq tumanlari nomlarining leksik-stratigrafik qatlami

№	Leksik-stratigrafik qatlam turlari	Iqtisodiy rayondagi qishloq tumanlari (28 ta)
1	Arab tilida nomlanuvchi qishloq tumanlari	Angor, Muborak (2 ta)
2	Aralashma tillar asosida (Fors-tojik tili va arabcha-o'zbekcha tillari) nomlanuvchi qishloq tumanlari	Bandixon, Denov, Mirishkor, Nishon, Sariosiyo, Yakkabog', Sherobod, Sho'rchi (8 ta)
3	Mo'g'ul tilida nomlanuvchi qishloq tumanlari	Qarshi (1 ta)
4	Tojik tilida nomlanuvchi qishloq tumanlari	Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Shahrisabz (4 ta)

5	Qadimgi Baqtriya tilida nomlanuvchi qishloq tumanlari	Termiz (1 ta)
6	Qadimgi eroniy tillarida nomlanuvchi qishloq tumanlari	Muzrabot (1 ta)
7	Qadimgi so'g'd tillarida nomlanuvchi qishloq tumanlari	Koson (1 ta)
8	Qadimgi turkiy tilda nomlanuvchi qishloq tumanlari	Boysun, G'uzor (2 ta)
9	O'zbek tilida nomlanuvchi qishloq tumanlari	Jarqo'rg'on, Ko'kdala, Oltinsoy, Qamashi, Qiziriq, Qumqo'rg'on, Uzun, Chiroqchi (8 ta)

Izoh: jadval manbalar asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Dastlab tumanlarning nomlarini tabiiy geografik jihatlarini hududiylik asosida tahlil etganda, eng avvalo, ularning (viloyatlar bo'yicha) geografik joylashuvi va nomlaridagi tabiat komponentlariga (suv, o'simlik va hayvonot dunyosi, tuproq, iqlim, ob-havo xususiyatlari, tog' va relyef tuzilishi) e'tibor qaratildi. Atoqli olim V.A.Nikonov tabiat obyektlarining nomlari shaharlar nomlariga nisbatan ancha to'g'ri, barqaror ekanligini alohida ta'kidlaydi: "Obyektning tabiiy xususiyatlarini aks ettiruvchi nomlarning bir qismi rivojlanishining dastlabki bosqichlarida ustun bo'ladi va tabiat ustidan insonlar hukmronligining ortishi bilan kamayadi" [4:48]. Janubiy iqtisodiy rayon qishloq tumanlari nomlarining tabiiy geografik xususiyatlari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan deyishimiz mumkin (2-jadval).

2-jadval. Janubiy iqtisodiy rayon qishloq tumanlari nomlarining tabiiy geografik xususiyatlari asosida tasnifiy guruhlari

№	Tasnifiy guruhlari	Tuman nomlari
I.	Tabiiy geografik xususiyatlari asosiga ko'ra bosh guruhi	Angor, Bandixon, Jarqo'rg'on, Kitob, Ko'kdala, Yakkabog', Qiziriq, G'uzor, Shahrizabz, Sho'rchi (10 ta)
1	Ariq terminining o'zgargan shakli asosida shakllangan guruhi:	Qiziriq (1ta)
2	Band termini asosida shakllangan guruhi:	Bandixon (1 ta)
3	Bog' termini asosida shakllangan guruhi:	Yakkabog' (1ta)
4	Dala termini asosida shakllangan guruhi:	Ko'kdala (1 ta)
5	Jar termini asosida shakllangan guruhi:	Jarqo'rg'on (1 ta)
6	Rang bilan bog'liq so'zlar asosida shakllangan guruhi:	Ko'kdala, Shahrizabz (2 ta)
7	Suv termini asosida shakllangan guruhi:	Kitob, G'uzor (2 ta)
8	Sho'r yer so'zining o'zgargan shakli asosida shakllangan guruhi:	Sho'rji (1 ta)

Izoh: jadval adabiyot va fond manbalari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Shuningdek, iqtisodiy rayon tarkibidagi qishloq tumanlari nomlarining ijtimoiy geografik xususiyatlari quyidagi jadvalda tasnifiy guruhlarga ajratilganligi bilan xarakterlanadi (3-jadval).

3-jadval. Janubiy iqtisodiy rayon qishloq tumanlari nomlarining ijtimoiy geografik xususiyatlari asosida tasnifiy guruhlari

№	Tasnifiy guruhlari	Tuman nomlari
II.	Ijtimoiy geografik xususiyatlari asosiga ko'ra bosh guruhi	Boysun, Dehqonobod, Denov, Kasbi, Koson, Mirishkor, Muborak, Muzrabot, Nishon, Oltinsoy, Qamashi, Qarshi, Qumqo'rg'on, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Chiroqchi (18 ta)
1	Antrotoponim asosida shakllangan guruhi:	Muborak, Sherobod (2 ta)
2	Belgi funksiyasi asosida shakllangan guruhi:	Nishon (1 ta)
3	Ijtimoiy tabaqa va aholining kasb-kori asosida shakllangan guruhi:	Boysun, Mirishkor, Chiroqchi (3 ta)
4	Obod termini asosida shakllangan guruhi:	Dehqonobod (1 ta)
5	Oltin termini asosida shakllangan guruhi:	Oltinsoy (1 ta)
6	Qishloq terminining o'zgargan shakli asosida shakllangan guruhi:	Denov, Termiz (2ta)
7	Qo'rg'on termini asosida shakllangan guruhi:	Qumqo'rg'on (1ta)
8	Saroy so'zining o'zgargan shakli asosida shakllangan guruhi:	Kasbi, Muzrabot, Qarshi (3ta)
9	Tegirmon so'zining o'zgargan shakli asosida shakllangan guruhi:	Sariosiyo (1 ta)
10	Xalq yoki urug' asosida shakllangan guruhi:	Koson, Qamashi, Uzun (3ta)

Izoh: jadval adabiyot va fond manbalari asosida mualliflar tomonidan tuzilgan.

Xulosalar

1. Janubiy iqtisodiy rayoni ma'muriy qishloq tumanlarining leksik-semantik xususiyatlari tadqiq qilingan va turli tarixiy davrlar uchun xos bo'lgan tabiiy obyektlarni nomlash an'analari ajratib olingan

2. Janubiy iqtisodiy rayonidagi qishloq ma'muriy tumanlari nomlarining leksik-stratigrafik qatlamlari 9 turga ajratilgan (arab, mo'gul, tojik, o'zbek tillarida, shuningdek, qadimgi tillarga mansub baqtriya, eroniy, so'g'd, turkiy tillarga oid hamda aralashma tillar asosida (fors-tojik tili va arabcha-o'zbekcha tillari) nomlanuvchi qishloq tumanlari).

3. Janubiy iqtisodiy rayon qishloq tumanlari nomlarining tabiiy geografik xususiyatlariga ko'ra 8 ta tasnifiy guruhlarga Angor, Bandixon, Jarqo'rg'on, Kitob, Ko'kdala, Yakkabog', Qiziriq, G'uzor, Shahrizabz, Sho'rchitumanlari (10 ta) ajratilib tahlil qilingan. Bu guruhlarga *ariq*, *band*, *bog'*, *dala*, *jar*, *suv*, *sho'r* kabi terminlar asosida shakllangan tuman nomlari kiradi. Ko'kdala, Shahrizabz tumanlarining nomlari rang bilan bog'liq so'zlar (ko'k va yashil ranglari) asosida shakllangan alohida guruhni tashkil qiladi.

4. Tadqiqot ishimizning o'rganish obyekti hisoblangan Janubiy iqtisodiy rayon qishloq tumanlari nomlarining ijtimoiy geografik xususiyatlari 10 ta tasnifiy guruhlarga Boysun, Dehqonobod, Denov, Kasbi, Koson, Mirishkor, Muborak, Muzrabot, Nishon, Oltinsoy, Qamashi, Qarshi, Qumqo'rg'on, Sariosiyo, Termiz, Uzun, Sherobod, Chiroqchi (18 ta) ajratilib tahlil qilingan. Tahlil natijasiga ko'ra antroponim (kishilarning ismi-sharifi asosida) nom olgan tumanlar Muborak, Sherobod, belgi funksiyasi

tufayli shakllangan, *obod, oltin, qo'rg'on* terminlari asosida nomlangan, qishloq va saroy so'zlarining o'zgargan shakli asosida shakllangan va aholining kasb-kori va ijtimoiy

tabaqaviy qatlami asosida vujudga kelgan, shuningdek, xalq yoki urug' (qabila) nomi tufayli tarixan tarkib topgan etnotoponimik tuman nomlari tasnifiy guruhlariga ajratilgan.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasida ma'muriy-hududiy birliklar, aholi punktlari, tashkilotlar va boshqa toponimik obyektlarning nomlarini tartibga solish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. / "Xalq so'zi", 1996, 1. VI.
2. O'zbekiston Respublikasining 2011-yil 12-oktabrdagi "Geografik obyektlarning nomlari to'g'risida"gi Qonuni. № O'RQ 303. (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011., 41-son, 448-modda).
3. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi. 1996 yil 1 yanvar kunigacha bo'lgan ma'lumotlar. – T.: "O'zbekiston", 1996. 280-b.
4. Musin R.A. So'z mag'zidan yer qa'riga. – T.: 1967. 58-b.
5. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – T.: "Muharrir", 2009. 432-b.
6. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati (O'zbekistonning janubiy rayonlari). – T.: "O'qituvchi", 1988. 288-b.
7. Nizomov A. va boshq. Toponimika. – T.: "Sharq", 2012. 120-b.

REZYUME. Ushbu maqolada O'zbekistondagi Janubiy iqtisodiy rayon, qishloq tumanlari nomlarining geografik xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, tuman nomlarining leksik-stratigrafik qatlamlari va nomlanishga oid bahs-munozarali masalalari haqida so'z boradi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье описаны географические особенности названий сельских округов Южного экономического района Узбекистана. В статье также говорится о лексико-стратиграфических пластах названий районов и спорных вопросах, связанных с именованием.

SUMMARY. This article describes the geographical features of the names of rural districts of the Southern Economic Region in our country. The article also talks about the lexical-stratigraphic layers of district names and controversial issues related to naming.

QORAQALPOG'ISTON TABIIY RESURLARI VA ULARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

G.N.Bekimbetova – o'qituvchi

Nukus konchilik instituti

Tayanch so'zlar: foydali qazilmalar, homashyo, konlar, mineral tuzlar, neft, kon gazlari, fosforit konlari, geografik joylashish, tosh tuzi, ekologiya.

Ключевые слова: полезные ископаемые, сырьевые ресурсы, руда, минеральные соли, нефть, попутный газ, фосфорная руда, географическое расположение, каменная соль, экология.

Key words: minerals, raw materials, mines, mineral salts, oil, mine gases, phosphorite deposits, geographical location, properties, rock salt, ecology.

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududi foydali qazilmalarga boy hisoblanadi. Ular turlari va zahiralari bo'yicha ham ko'pdir. Qazilma boyliklardan: o'tin-energetik, kimyoviy, metallurgik va qurulish uchun kerakli materiallar, shu bilan birga oziq-ovqat ahamiyatiga ega boyliklar keng tarqalgan. O'lkamizning deyarli barcha yerlarida has-cho'plik ahamiyatiga molik bioresurslar va yer osti suvlari uchraydi.

Jamiyat ma'lum rivojlanish davri davomida tabiiy resurslardan foydalanishda ularni real va potensial resurslarga ajratadi. Real resurslar deb, jamiyatning ayni holatdagi rivojlanish bosqichida qidirib topilgan, zahiralari aniqlangan va jamiyat tomonidan faol ishlatilayotgan resurslarga aytiladi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi, ilmiy ishlar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etilib borilishi bilan, real resurslar ham o'zgarib boradi. Masalan, insonlarning u yoki bu sohani takomillashtirib borish jarayonida bir energetik resurslar boshqasiga almashtiriladi.

Potensial tabiiy resurslar deb jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida qidirib topilgan, qisman va miqdoran aniqlangan resurslarga aytiladi. Ammo, ayni paytda davlat tomonidan turli sabablarga ko'ra ulardan foydalanish maqsadga muvofiq emas deb topilgan bo'lishi mumkin. Bir so'z bilan aytganda, ulardan foydalanish uchun texnik vositalar yetarli bo'lmagan, xomashyolarni qayta ishlash texnologiyalari ham ishlab chiqilmagan yoki umuman yaratilmagan bo'lishi mumkin [2:47-48].

Professor I.Saushkin «Elektr energiya olish, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va foydalanish mumkin bo'lgan tabiiy komponentlarni va sanoat uchun xomashyolarni» - tabiiy resurslar deb tariflaydi [4:8].

Mineral xomashyo resurslar jonsiz tabiiy resurslari bo'lib, konstruksiya materiallari, o'g'itlar, har xil buyumlar, qurilish materiallari, asbob-uskunalar, ekilgi kabi xalq xo'jaligida foydalanadigan mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Bu resurslar qayta tiklanmaydigan resurslarga kiradi, yo'qolib ketmaydi va shu bilan birga o'zining xususiyatlarini ham o'zgartirmaydi. Geologik va modda aylanishida o'z shakllarini va joylarini o'zgartiradi. Litosfera va qisman gidrosfera mineral xomashyo resurslarining manbayi hisoblanadi. Mineral xomashyo resurslar hududlarining joylashish chuqurligi va

tarkibi bo'yicha xilma xil. Shu sababdan ulardan foydalanish samarasi ham har xil.

Tabiiy resurslar inson yashashi uchun kerakli vositalari bo'lib, ular jamiyatta ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish vositalari yordamida ta'sir ko'rsatadi va bu haqida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-mayda «2021-2022-yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasi tabiiy-xomashyo va mineral resurslarini chuqur qayta ishlash bo'yicha xomashyo bazasini kengaytirish hamda shu asosda qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi 327-son qarori qabul qilindi. Bu qaror, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktabrdagi «2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof muhitni muxofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5863 son Farmonini amalga oshirish maqsadida qabul qilingan [1:1].

Farmonda atrof muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlarining buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, respublika aholi punktlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarga erishish ko'zda tutilgan.

Qoraqalpog'iston hududining foydali qazilmalarga boy bo'lishining asosiy sabablaridan biri, uning territoriyasining geologik tuzilishi va relefining tarixiy davrlar ichida shakllanishidir. Masalan, qurilish materiallari: Sulton Uvays, Jumirtog', Porlitog', Kuskanatog', Beltog' tepaliklarida, Ustyurt platosi va Qizilqum cho'listonining qum toshi tepaliklarida uchraydi.

Mineral tuzlarning yirik konlari Borsakelmas, Qarawimbet, Aqko'l, Qamisli yerlaridan osh tuzi konlari topilgan. Ustyurtdagi Qo'ng'iro't soda zavodi Borsakelmas va Qarawimbet tuz konlari asosida ishga tushirilib, bu korxonani bir nechta yuz yillar davomida uzliksiz ishlashini ta'minlash imkonini beradi. Neft va gaz konlari Qoraqalpog'istondagi Ustyurtning Shakpakti, Olanbek, Quwanish, Borsakelmas va Orol dengizining janubiy g'arb